



## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

## Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	<b>Ro'yxatdan o'tgan korxonalar</b>	<b>21071</b>	<b>115,0 %</b>
	<b>Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar</b>	<b>20240</b>	<b>113,3 %</b>
	<b>Yangi tashkil etilgan korxonalar (2020-yilda)</b>	<b>2 651</b>	<b>92,4 %</b>

### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat



Oilaviy korxona



Unitar korxona



Xususiy korxona




Aksiyadorlik jamiyat




Boshqa korxonalar

*mas'uliyati cheklangan jamiyat  
birlikda*



*xususiy korxona  
birlikda*




### Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1-sentabr holatiga ko'ra)



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha)

2020-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat -aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; -aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatları bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatları bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-avgust oylarida, birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-avgust oylarida)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2020- yil yanvar-avgust oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020- yilning yanvar-avgust oylarida 2 651 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 1 760 ta, xususiy korxonalar - 263 ta, oilaviy korxonalar - 439 ta, muassasalar - 50 ta va boshqalar - 139 tani tashkil etdi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar tarkibi (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra)




## Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- sentyabr holati ga ko'ra sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 2 610 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 118,6 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishslash) sanoatida – 118,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 90,5 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash – 118,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 6,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 152,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 114,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %) o'sishidir.


## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 254 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,1 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 101,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 60,0 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 118,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,9 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 112,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 31,1 %) o'sishidir.

## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 4 929 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 122,5 % ga oshdi. Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 125,0 % ga (jami savdodagi ulushi 69,6 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 112,9 % ga (jami savdodagi ulushi 22,2%), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 130,5 % ga (jami savdodagi ulushi 8,2 %) o'sishidir.



## Oilaviy korxonalar soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 1 487 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 515 taga yoki 153,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 419 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 470 taga yoki 149,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 439 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 142 taga yoki 147,8% ga oshganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- sentyabr holatiga ko'ra 12 126 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 972 taga yoki 119,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 628 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 721 taga yoki 117,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 760 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 263 taga yoki 13,0 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 164 tani tashkil etib, ulardan 161 tasi yoki 98,2 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 22 taga yoki 115,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-avgust oylarida 8 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-avgust oylarida, birlikda)



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni**  
*(2020-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)*



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**  
*(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)*

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>65</b>	<b>73</b>	<b>99</b>	<b>139</b>	<b>161</b>
<i>shu jumladan:</i>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	12	13	27	35	40
<b>Sanoat</b>	40	43	48	65	83
<b>Qurilish</b>	3	3	3	5	5
<b>Savdo</b>	6	9	15	21	19
<b>Tashish va saqlash</b>			1	2	1
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	2	2	1	3	4
<b>Axborot va aloqa</b>					
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	1	1	2	3	3
<b>Boshqa turlar</b>	1	2	2	5	6

**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni**  
(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>161</b>	<b>93</b>	<b>68</b>
<b>tumanlar:</b>			
Amudaryo	5	2	3
Beruniy	10	3	7
Bo'zatov	2	1	1
Qorao'zak	11	8	3
Kegeyli	7	5	2
Qo'ng'irot	7	5	2
Qanliko'l	6	3	3
Mo'ynoq	26	19	7
Nukus	10	8	2
Taxiatosh	11	3	8
Taxtako'pir	6	4	2
To'rtko'l	4	3	1
Xo'jayli	4	1	3
Chimboy	5	3	2
Shumanay	5	2	3
Ellikqal'a	6	4	2
Nukus sh	36	19	17

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 36 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 22,4 %), Mo'ynoq 26 ta (16,1 %), Taxiatosh va Qorao'zak tumanlarida 11 tadan 6,8 %) hamda Beruniy va Nukus tumanlarida 10 tadan (6,2 %) tashkil etadi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

*(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)*



2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (29,4 %), To'rtko'l (10,4%), Beruniy (8,2 %), Amudaryo (7,2 %), Ellikqa'l'a (6,1 %), Qo'ng'rot (5,4 %), Xo'jayli (5,0 %), Nukus (4,6 %), Chimboy (3,8 %), Tatiatosh (3,3 %), Qorao'zak (3,1 %), Kegeyli (2,7%), Qanliko'l (2,6 %), Mo'ynoq (2,5 %), Shumanay (2,5 %), Taxtako'pir (2,1 %) Bo'zatov (1,1 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

*(2020- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)*


2020- yil yanvar- avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (22,0 %), To'rtko'l (10,2 %), Beruniy (6,9 %), Xo'jayli (5,9 %), Ellikqa'l'a (5,8 %), Q'onq'rot va Nukus (5,6 %) dan, Amudaryo (5,8 %), Taxiatosh (4,3 %), Taxtako'pir (3,9 %), Mo'ynoq (4,0 %), Chimboy (3,7 %), Bo'zatov (3,6 %), Shumanay (3,3 %), Qanliko'l (3,2 %), Qorao'zak hamda Kegeyli (3,1 %) dan tumanlar ulushiga tegishli.



**Tumanlar kesimida har 1000 oilaga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni\***  
*(2020- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




**Hududlar kesimida har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan kichik korxona va mikrofirmalar soni\*\***  
*(2020- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




\* 2020-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashdirish bo‘yicha kengashlari ma‘lumotlari asosida jamlangan.

\*\* Doimiy aholi soni 2020-yil 1-iyul holatiga ko‘ra shakllantirilgan

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar kesimidagi soni (2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1- sentabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (34,9 %), To'rtko'l (11,4 %), Beruniy (7,2 %), Amudaryo (6,3 %), Nukus (5,7 %), Xo'jayli (4,8 %), Q'ong'rot (4,7 %), Ellikqa'l'a (4,2 %), Chimboy (3,7 %), Qorao'zak (3,4 %), Mo'ynoq (2,9 %), Kegeyli (2,8 %), Taxiatosh (2,4 %), Qanliko'l (1,7 %), Shumanay (1,6 %), Taxtako'pir (1,2 %) va Bo'zatov (1,1 %) tumanlar hissasiga tegishli.

**Tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**

*(2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)*





2017- 2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining tumanlar bo'yicha soni (2020- yilning yanvar-avgust oylarida, birlikda)



2020- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, tumanlar kesimida taqsimlanganda Taxtako'pir (16,6 %), Amudaryo (10,9 %), Nukus,sh (11,2 %), To'rtko'l (10,5 %), Qanliko'l (9,1 %), Beruniy (11,8 %), Taxiatosh (5,7 %), Ellikqal'a (4,3 %), Xo'jayli (4,6 %), Qorao'zak (3,0 %), Nukus (3,2 %), Qo'ng'irot (2,7 %), Mo'ynoq (2,7 %), Shumanay (1,8 %), Chimboy (0,9 %), Kegeyli va Bo'zatov (0,5 %) dan tumanlar ulushga ega.

## Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2020- yilning yanvar-avgust oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborotma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsnинг (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish  
bo'limi.  
Tel.:61 224-92-09**